

2- mavzu. Kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining tashkil etilishi

REJA

Kredit-modul tizimi tarixi. Kredit va modul tushunchalarini ta‘rifi. Kredit-modul tizimini tamoyillari

Ma‘vzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar

“Educational Program”, “Academic Program”, “Syllabus”, • Academic Calendar, • Advisor, • Assistant Professor, Associate Professor, • Bachelor, Master, Doctor, Credit, Credit-hour.

Kredit ta‘lim tizimi asoslari va O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish

Asosiy tushunchalar

Kredit ta‘lim tizimini joriy etish yangi asosiy tushunchalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bunga so‘nggi yillarda ta‘lim tizimida yangi inglizcha atamalar qo‘llanilayotganligi, an‘anaviy atamalarni qo‘llashdagi qarama-qarshiliklar, takrorlanishlar va alogizmlar asos bo‘ladi.

O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro aloqalarni maqsadli kengaytirishi, mamlakat ta‘lim tizimining jahon tizimiga jadal integratsiyalashuvi ommaviy ravishda o‘quv, uslubiy, ilmiy va tashkiliy materiallarni inglizchadan tarjima qilishni taqozo etmoqda. Bu erda asosiy urg‘u O‘zbekistonda kredit ta‘lim tizimini joriy etishga yordam beradigan, xalqaro miqyosda qo‘llanilayotgan qator muhim tushuncha va atamalarga qaratiladi.

“Educational Program” (ta‘lim dasturi) muayyan ta‘lim bosqichi (bakalavriat, magistratura, doktorantura) bo‘yicha mutaxassislikni anglatadi, “Academic Program” (o‘quv dasturi) o‘quv fani nuqtai-nazaridan qo‘llaniladi va “Syllabus” (sillabus) atamasi bilan bir xil ma‘noni anglatadi. “Course” atamasi o‘quv yilini emas, balki o‘quv kursini, fanini, modulini anglatadi. "Faculty" atamasi fakultetni emas, balki professor-o‘qituvchilar tarkibini anglatadi. O‘qituvchining lavozimini ko‘rsatishda “Lecturer” (lektor, ma‘ruzachi) va “Tutor” (tyutor) atamalari keng qo‘llaniladi. Klassifikatorida qo‘llaniladigan “mutaxassislik” tushunchasini ifodalash uchun ingliz tilida "Speciality" emas, balki "Major" atamasi qo‘llaniladi. Va nihoyat, o‘quv rejasi “Academic Plan” emas, balki “Curriculum” ko‘rinishida qo‘llaniladi.

SHu kabi holatlarga aniqlik kiritish uchun quyida kredit ta‘lim tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz:

• **Academic Calendar** (akademik kalendar, o‘quv jadvali) – o‘quv yili davomidagi o‘quv, attestatsiya va dam olish (ta‘til va bayram kunlari) kunlari ko‘rsatilgan o‘quv jarayoni jadvali;

- **Advisor** (edvayzer) – talabaga mutaxassislik bo'yicha o'quv traektoriyasini tanlash va o'quv davridagi fanlarni o'zlashtirish bo'yicha yordam beruvchi kafedra o'qituvchisi.

- **Assistant Professor, Associate Professor, Professor**(assistent,dotsent,professor) – oliy o'quv yurtlaridagi professor-o'qituvchilar tarkibining lavozimlari bo'lib, tyutorlar va lektorlarga beriladi.

- **Bachelor, Master, Doctor** (bakalavr, magistr, doktor) – oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

- **Contact hour** (kontakt soat) – 1 akademik soat hajmidagi mashg'ulot davomiyligi bo'lib, u mashg'ulot turlari bo'yicha turlicha belgilanishi mumkin.

- **Core Subjects** (majburiy fanlar) – ta'lim dasturi bo'yicha majburiy o'rganilishi lozim bo'lgan fanlar.

- **Course Description** – fan mazmuni haqida ma'lumot beruvchi uning qisqa bayoni.

- **Credit, Credit-hour** (kredit, kredit-soat) – o'quv ishlari hajmini o'lchashning yagonalashtirilgan birligi. Bir kredit semestr davomida har haftada o'tiladigan bir akademik soatni va uni o'zlashtirish uchun belgilangan mustaqil ta'lim soatlarini o'z ichiga oladi.

- **Curriculum** (talabaning shaxsiy o'quv rejasi) – talabaning ta'lim dasturi bo'yicha fanlar ro'yxati va hajmini, ularni o'qish tartibini belgilovchi asosiy hujjat.

- **Degree** (akademik daraja) – oliy o'quv yurti tomonidan ta'lim dasturini to'liq tugatganlik haqida bitiruvchilarga beriladigan daraja;

- **Distance Education** (masofaviy ta'lim) – masofadan bilim olish shakli bo'lib, ta'lim muassasasidan uzoqda joylashgan shaxslarni elektron va telekommunikatsiya vositalari yordamida uslubiy ta'minlash, o'qitish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'quv muhiti.

- **Elective Courses** (tanlov fanlari) – talabalar tomonidan ixtiyoriy tanlanadigan fanlar.

- **Enrollment** (o'quv kursiga yozilish) – talabalarning o'quv kurslariga belgilangan tartibda qayd qilinishi.

- **Final Examination** (yakuniy nazorat) – o'quv kursi yakunida talabalarning o'zlashtirishini tekshirish uchun o'tkaziladigan nazorat turi.

- **Full Time Education** (kunduzgi ta'lim shakli) – talaba o'quv rejada ko'zda tutilgan barcha o'quv mashg'ulotlariga qatnashishi shart bo'lgan o'qish shakli.

- **General Education Requirement (GER)** – umumta'lim fanlari,ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar.

- **Grade Point Average (GPA)** (o'rtacha ball) – talabaning fanlarni o'zlashtirishining o'rtacha bahosi (fanlar bo'yicha kreditlarning raqamli ekvivalentlarga ko'paytmalari yig'indilarining o'quv davridagi umumiy kreditlar soniga nisbati); talabalarni keyingi bosqichga o'tkazish uchun qo'llaniladi.

- **Hand-outs** (tarqatma materiallar) – talabalarga mavzu bo'yicha o'quv jarayonida tarqatiladigan ko'rgazmali materiallar (tezislar, ma'ruzalar, havolalar, misollar, glossariy, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar).

- **Midterm Examination** (oraliq nazorat) – tasdiqlangan akademik kalendar bo'yicha fanni o'zlashtirishning fan o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladigan davriy nazorat.

- **Office Hours** – talabaning dars jadvalida ko'rsatiladigan, talaba o'qituvchi rahbarligida auditoriyadan tashqarida bajaradigan mustaqil ishi.

- **Office of Registrar (Registrar ofisi)** – o'qitiladigan fanlarga talabalarni yozish va ularning o'quv davridagi barcha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini qayd qilish xizmati.

- **Part-time Education** (sirtqi ta'lim) – o'quv mashg'ulotlari o'quv materiallarini jo'natish orqali kombinirlangan tarzda olib boriladigan ta'lim shakli. Bunda talaba semestrda belgilangan kreditlardan kam kredit oladi, lekin o'quv semestrlari sonining ko'pligi hisobiga talab qilinadigan umumiy kreditlarni to'playdi.

- **Prerequisite, Postrequisite** – muayyan fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, undan oldin va keyin o'qilishi zarur bo'lgan fanlar;

- **Subbatical Term** (malaka oshirish davri) – o'qituvchining belgilangan akademik o'z malakasini majburiy tarzda oshirishi.

- **Syllabus** (fanning ishchi o'quv dasturi) – fanning ahamiyati, maqsad va vazifalari, qisqa mazmuni, mavzulari va mashg'ulotlarning davomiyligi, mustaqil ish topshiriqlari, maslahat vaqtlari, o'qituvchining talablari, baholash mezonlari, nazorat jadvali va adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan asosiy o'quv-uslubiy hujjat.

- **Term** (akademik davr) – oliy o'quv yurti tomonidan belgilangan o'quv davri, u uch xil shaklda bo'lishi mumkin: semestr, davomiyligi odatda - 15 hafta, trimestr – 10 hafta, kvartal – 8 hafta.

- **Transcript** (akademik ma'lumotnoma) – belgilangan shakldagi hujjat bo'lib, o'quv davridagi o'tilgan fanlarni va ular bo'yicha to'plangan kreditlarni, baholarni va o'rtacha balni ko'rsatadi.

- **apellyasiya** – talabalarining bilimni baholashga nisbatan noob'ektiv yondashuvlarni, omillarni aniqlash va yo'qotish maqsadida o'tkaziladigan tadbir.

- **bakalavriat** – bakalavr akademik darajasini taqdim etuvchi oliy ta'lim dasturi.

- **talabaning o'quv-uslubiy majmuasi** – barcha o'quv davrlari uchun shaxsiy o'quv rejasi, sillabuslar, mustaqil ishlar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, amaliyot dasturlari va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi o'quv-yo'riqnomaga axborotlari va hujjatlari paketi.

- **doktorantura** – oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi.

- **joriy nazorat** – fanining har bir mavzusining o'zlashtirilishini tekshirish uchun fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladigan nazorat turi.

- **ikki diplomli ta'lim** – ikkita o'quv rejasi bo'yicha parallel o'qish imkoniyati, bunda ikkita o'zaro teng kuchli diplomlar olish (Double Major) yoki bitta asosiy va bitta qo'shimcha diplom olish (Major-Minor) mumkin.

- **ishchi o'quv rejasi** – talabalarining shaxsiy o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan o'quv rejasi, o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamalarini hisoblash uchun asos bo'ladigan hujjat.

- **kredit ta'lim tizimi** – o'quv jarayonini tashkil etish shakli bo'lib, talabalarga o'z o'quv traektoriyalarini muayyan chegarada belgilash imkonini

beradi, mustaqil va ijodiy bilim olishni rag'batlantirishga yo'naltiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar hajmi kreditlarda o'lchanadi.

- **kurs siyosati** – fanni o'zlashtirish bo'yicha talabalarga qo'yiladigan talablar.

- **magistratura** – oliy o'quv yurtlarida va ilmiy muassasalarda "magistr" akademik darajasini beradigan, chuqur ilmiy va kasbiy tayyorgarlik asosida ilmiy-pedagogik kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash shakli.

- **ma'lumotnoma-ko'rsatkich** – akademik kalendar, oliy o'quv yurti haqidagi umumiy ma'lumotlar, talabaning huquqlari va majburiyatlari, kredit ta'lim tizimining asosiy qoidalari, har bir fan bo'yicha yakuniy baholashlarni hisoblash metodikasi va o'rtacha ball (GPA), yakuniy davlat attestatsiyasi talablari va shu kabilarni o'z ichiga oladigan ma'lumotnoma.

- **mustaqil ish** – mavzular bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan ish bo'lib, o'quv-uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta'minlanadi, testlar, nazorat ishlari, kollokviumlar, referatlar, bayon va hisobotlar shaklida nazorat qilinadi.

- **namunaviy o'quv reja** – o'quv fanlarini o'rganish ketma-ketligi va hajmini belgilovchi o'quv rejasi.

- **oraliq attestatsiya** – fanlarni o'zlashtirishning kompleks baholanishi.

- **portfolio** – talabalarning muayyan vaqt davomida (semestr, o'quv yili) bajargan turli ishlari to'plami.

- **tyutor** – fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi va maslahat beruvchi, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qiluvchi va bajarilishini ta'minlovchi, fan bo'yicha bilimlarni tizimga keltiruvchi, semestr va kurs ishlariga rahbarlik qiluvchi, o'quv amaliyotlarini tashkil qiluvchi o'qituvchi.

- **fan kodi** – o'quv rejasida har bir fan uchun belgilab qo'yiladigan harf-raqamli belgi, fanning xalqaro nomlanishi asosida belgilanadi.

- **fanning o'quv-uslubiy majmuasi** – fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beruvchi asosiy o'quv-uslubiy hujjatlar paketi.

- **fan o'zlashtirilishini nazorat qilish** – turli shakldagi nazorat topshiriqlari asosida fan bo'yicha o'zlashtirishni nazorat qilish (yozma ish, test, amaliy ishlar, portfolio, og'zaki so'rov, imtihon va h.k.); joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari mavjud.

- **chiziqli o'qish tizimi** – ta'lim dasturidagi fanlarni mantiqli tuzilgan aniq tartib bo'yicha o'rganishni tashkil qilish usuli.

- **chiziqsiz o'qish tizimi** – ta'lim dasturidagi fanlarni alternativ traektoriya bo'yicha o'rganishni tashkil qilish usuli.

- **shaxsiy o'quv rejasi** – har bir talabaning shaxsiy o'quv traektoriyasini belgilab beruvchi o'quv rejasi;

- **yakuniy davlat attestatsiyasi** – talabalarning ta'lim bosqichiga mos davlat ta'lim standartlarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadbir. Bu tadbir natijasida ta'lim olganlik haqida hujjat (diplom) beriladi.

**Dunyo mamlakatlarining oliy ta'lim va oliy
ta'limdan keyingi ta'lim tuzilmasi**

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi zamonaviy oliy ta'lim tizimi Evropa va AQSH universitetlarida uzoq vaqt tajriba to'plash natijasida hosil bo'lgan. Universitetlarning avtonomiyasi va ta'lim jarayonidagi milliy o'ziga xoslik turli davlatlar uchun maqbul bo'lgan mutaxassis tayyorlash namunasini ishlab chiqishni qiyinlashtirgan. Universitetlar o'zlarining o'qishga qabul qilish va bilim berish tizimlariga ega bo'lishgani sababli, umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish juda qiyin kechgan.

Yondashuvlarni umumlashtirish bo'yicha dastlabki qadamlar Amerika universitetlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ular fan talablariga mos bo'lgan zamonaviy biznes qoidalari asosida oliy ta'limning yagonalashtirilgan modelini taklif qilishgan. Bolonya deklaratsiyasi ham Evropa Ittifoqi universitetlari o'rtasida shunga o'xshash modelni taqdim qildi. Bunda birinchi bosqich – talabalarning ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ijrochilik malakalarini o'zlashtirishiga, ikkinchisi esa – ilg'or talaba yoshlarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, innovatsion g'oyalar ishlab chiquvchi ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tuzilmasi tobora unifikatsiyalashib bormoqda. Bu unifikatsiya eng avvalo ta'lim jarayonining uzluksizligiga va har bir keyingi bosqich oldingisiga tayanishiga asoslangan. Masalan, AQSH da bakalavriat ta'lim dasturlari 12 yillik umumta'lim maktablari bitiruvchilarining kontingentiga tayanadi, bitiruvchilarning bilimlari kollej va universitetlarga o'qishga kirishga va oliy ta'lim dasturlarini 4 yil davomida o'zlashtirishga imkon beradi. O'z navbatida, bakalavriat bitiruvchilarining aksariyati magistraturaga o'qishga kirish uchun va magistratura dasturlarini 1-3 yilda o'zlashtirish uchun etarlicha bilimlarga ega bo'lishadi. Va nihoyat, magistratura ham oliy ta'limdan keyingi bosqichda fan doktori (PhD) darajasidagi kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Turli mamlakatlarda, jumladan AQSH da ham bakalavrlar, magistrlar va doktorantlar tayyorlash mahalliy xususiyatlarga ega va hozir ham alohida oliy o'quv yurtlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Amerika oliy ta'lim tizimining o'ziga xosligi shundaki, universitetlar etarli darajada mustaqil va avtonomiyaga egadirlar. Bu ularga yangi fanlarni, yangi mutaxassisliklarni nisbatan oson yaratishlariga va innovatsion ta'lim metodlarini qo'llashlariga imkon beradi. O'quv rejalari har bir talaba uchun uning qiziqishlari, qobiliyatlari va universitet talablaridan kelib chiqib talabalarning maslahatchilari – edvayzerlar ko'magida alohida shakllantiriladi.

Hozirgi kunda AQSH oliy ta'lim tizimida uch xil turdagi o'quv muassasalari mavjud: boshlang'ich ikki yillik kollej, to'rt yillik kollej (ular universitet tarkibida yoki alohida faoliyat yuritishlari ham mumkin) va universitetlar. Oliy o'quv yurtida ikki yil o'qiganidan so'ng talaba Associate Degree darajasiga ega bo'ladi, bu unga universitetda o'qishni davom ettirishga yoki AQSH dagi hohlagan kompaniyada kichik lavozimlarda ishlashga imkon beradi.

SHuni ta'kidlash joizki, AQSH da magistratura tugallangan darajani (Graduate Degree), bakalavriat esa tugallanmagan darajani (Undergraduate Degree) anglatadi. Bu ikkita daraja AQSH da mazmuni bo'yicha ham, tashkiliy-uslubiy tuzilmasi bo'yicha ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Doktorantura esa, oliy

ta'limdan keyingi bosqich sifatida doktorantlar faoliyatining yuqori darajadagi mustaqilligi bilan ajralib turadi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichi (bakalavriat) o'rta maktabning yuqori bosqichidan (High School) so'ng 4 yil davom etadi va har biri ikkita ikki yillik bosqichlarga bo'linadi. Dastlabki ikki yilda asosan umumta'lim fanlari (GER – General Education Requirements)) o'qitiladi va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, talabaga muayyan daraja beriladi. Universitetlar va 4 yillik kollejlilar bilan bir qatorda bunday darajani ikki yillik munitsipal kollejlilar ham berishadi.

Akademik yil davomiyligi 14-16 hafta (ko'pincha 15 hafta) bo'lgan ikki semestrda tashkil topadi. O'quv dasturlarini tezkor yakunlash va qo'shimcha ta'lim uchun mo'ljallangan yozgi semestrlar ham keng joriy etilgan. Sirtqi ta'lim asosan masofaviy shaklda amalga oshiriladi va kam sonli alohida toifadagi talabalar uchun mo'ljallangan (nogironlar, ikkinchi oliy ta'lim oluvchilar, uzoq muddat xizmat safarida bo'lganlar va h.k.).

O'rta va oliy ta'limda uzluksizlik tamoyilini ta'minlash maqsadida AQSH da umumta'lim maktablari bitiruvchilarining bakalavriatga tayyorgarlik darajasini bilish uchun umumta'lim maktabida olgan baholari va SAT (Scholastic Aptitude Test) yoki ACT (American College Test) tizimlarining ballariga asoslangan test tizimi joriy etilgan. Amerikada universitetlarga bakalavriatga o'qishga kiruvchi o'rta maktab bitiruvchilari uchun pastki chegara 480 SAT yoki 19 ACT etib belgilangan. Xorijiy talabalar uchun ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha o'tkaziladigan TOEFL (Test of English as Foreign Language) testlarining natijalari 450-550 dan kam bo'lmasligi belgilab qo'yilgan.

Magistratura bosqichi tuzilmasi barcha amerika universitetlarida dunyodaning boshqa ko'plab universitetlar bilan umumiy jihatlarga ega. Aksariyat universitetlar faqat ikki bosqichli tizimda oliy ma'lumot berishadi. Faqat kam sonli taniqli universitetlarga, ba'zi yirik universitetlarda esa – kam sonli kampuslarniga ilmiy universitet (Research) maqomiga ega. Bunga erishish uchun ular ko'proq magistratura va doktoranturani rivojlantirishadi. SHu bilan birga magistraturaga va doktoranturaga kirish uchun nafaqat ingliz tili bo'yicha 550-600 dan kam bo'lmagan TOEFL natijalarini topshirishi, balki mantiqiy-umumilmiy yo'nalishdagi GRE (Graduate Record Examination) va GMAT (Graduate Management Admission Test) testlaridan 640 dan kam bo'lmagan ballarni to'plashlari ham zarur. AQSH da doktoranturaga kirish uchun testlardan tashqari ba'zan jamoatchilik ishlaridagi tajribasi, liderlik qobiliyatlari haqida tavsiyanoma hamda kirish essesi ham talab qilinadi.

AQSH oliy maktablari akademik mustaqillikka va mehnat bozorining ehtiyojlariga yo'naltirilgan va shu asosda barcha akademik darajalar: bakalavr, magistr, falsafa doktori (PhD) taqdim etiladi.

AQSH da doktoranturaning o'ziga xosligi shundaki, doktorlik dasturlari oliy ta'limdan keyingi ta'lim Kengashi tomonidan to'liq nazorat qilinadi va tashkil qilinadi. Bu Kengash doktorant ta'lim oladigan kollejlilar va fakultetlar faoliyatiga bog'liq emas.

Angliyada 3 yillik bakalavriat 13 yillik o'rta maktab (katta A-Level bosqichini ham qo'shganda) ta'limiga asoslanadi. O'qishga kiruvchilar uchun ularning bilim darajalari ulushlari bo'yicha kamida umumta'lim fanlaridan – 45%,

asosiy fanlardan – 15%, boshqa fanlardan – 5% ni tashkil etishi kerak. Magistratura va doktorantura kunduzgi ta'lim mos ravishda 1 va 3 (maksimal 5) yil etib belgilangan. Xorijiy talabalar uchun ingliz tilini bilishi auditoriyada o'qitiladigan bazaviy fanlar uchun kamida – 550 TOEFL, laboratoriya ishlari uchun 500 TOEFL qilib belgilangan.

Buyuk Britaniyada har xil universitetlarda olingan darajalar rasman teng deb qabul qilingan bo'lsa ham, amalda ularning “salmog'i” universitetlarning mashhurligi bilan belgilanadi. Angliya va Uels universitetlari tomonidan quyidagi akademik darajalari beriladi: VA – gumanitar fanlar bakalavri, BEd – pedagogika fanlari bakalavri, EEng – texnika fanlari bakalavri, BSc – tabiiy fanlar bakalavri, LLB – huquq bakalavri; BMus – musiqa bakalavri; VM – tibbiyot bakalavri.

Darajalarning turli universitetlarda turlicha nomlanishi va qoidalardan chetga chiqish hollari ham uchrab turadi. Ba'zi SHotlandiya universitetlarida gumanitar fanlar bo'yicha birinchi bosqich bitiruvchisi bakalavr (VA) emas, magistr (MA) hisoblanadi. Ba'zi universitetlarda, xususan Oksford va Kembrijda ham VA gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha taqdim qilinadi, biroq tabiiy fanlar bakalavri malakasi (BSc) Kembrijda mavjud emas, Oksfordda esa – bu oliy akademik daraja hisoblanadi.

Fransiya oliy ta'lim tizimi ko'p bosqichliligi, ta'lim yo'nalishlarining keng tarmoqliligi va deyarli to'liq ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Ular murakkab tuzilishga ega bo'lib klassik turdagi universitetlar, oliy maktablar (siyosat va davlat boshqaruvi bo'yicha elita maktablari), san'at va arxitektura maktablari va maxsus maktablar (transport, kutubxona ishlari va h.k.) tomonidan taqdim etiladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'qish 2 yildan 11 yilgacha davom etishi mumkin va u ma'lumot haqidagi hujjat taqdim etish bilan yakunlanadi.

Universitet ta'limi birinchi siklda umumiy ta'limning DEUG – diplomini olish bilan yakunlanadigan ikki yillik dasturdan boshlanadi. Bu diplom egalari oliy ta'limni “litsenziat” diplomi bilan yakunlanadigan keyingi ikki yillik siklda davom ettirishlari mumkin. Yana bir yil o'qilsa magistrlik diplomi – “metriz” olinadi. Keyin talaba ishga joylashishi yoki ikkita yo'nalishdan birida bir yil o'qishni davom ettirishi mumkin: DEA – diplomini olish uchun doktoranturada o'qishni davom ettirishi yoki DESS – diplomini olish va oliy darajadagi mutaxassis ta'limini davom ettirishi mumkin.

Belgiya universitetlarida o'qish ko'p bosqichli bo'lib, har bir davr universitet akademik darajasini olish bilan yakunlanadi.

Universitetlardagi dastlabki ikki yil umumgumanitar va umumtexnik dastur asosida olib boriladi. Bu siklni tugatganidan so'ng talabalar “Candidature” (kandidat) diplomini qo'lga kiritishadi (bakalavr diplomiga mos keladi). Navbatdagi uch yil mutaxassislikka yo'naltirilgan bo'lib “Licenciate” (litsenziat) diplomini taqdim etish bilan yakunlanadi (magistr diplomiga mos keladi). Ba'zi yo'nalishlarda, masalan, muhandis, farmatsevt, huquq sohasidagi mutaxassislar uchun bu daraja yana uch yillik ta'limdan so'ng berilishi mumkin.

Keyingi ikki yillik o'qish ixtisoslikni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, dissertatsiya yozish va himoya qilishdan so'ng doktorlik ilmiy darajasi “Docteur” beriladi. Oliy ta'limning “Agreje” ilmiy darajasi bu tizimdagi eng yuqori daraja hisoblanadi va u doktor darajasi olinganidan ikki yildan so'ng taqdim etilishi mumkin.

Germaniya ta'lim tizimi klassik tuzilmaga ega bo'lib, boshlang'ich, o'rta va oliy maktablardan tashkil topgan. Bu tuzilmaning barcha bosqichlarida asosan davlat ta'lim muassasalari, shuningdek kam sonli xususiy ta'lim muassasalari faoliyat yuritishadi.

Germaniyadagi oliy ta'limning asosiy tamoyili – “akademik erkinlik” tamoyili bo'lib, har bir talabaga diplomiga kiritiladigan fanlar ro'yxatini mustaqil ravishda belgilash imkoni beriladi. SHu bilan birga Germaniyadagi oliy ta'lim tizimi o'quv jarayonini ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Bu jihat universitetlardagi o'quv jarayoni jadvallarining mazmunini belgilab beradi: har bir semestr ma'ruzalar davri (14-20 hafta) va mustaqil ilmiy ishlar davrlaridan iborat bo'ladi.

Germaniyaning oliy ta'lim muassasalarida ta'limning o'rtacha davomiyligi besh yilni tashkil etadi, biroq hozirda to'rt yillik kurslar ham mavjud. Konkurs asosida oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishdan oldin abiturientlar pullik tayyorlov kurslarida o'qishadi. Universitet ta'limi ikki bosqichdan iborat, bular – “Vordiplom” (dastlabki diplom) litsenziat darajasi beriladigan tayanch (3-4 ta semestr) bosqich va “Magister Artium” magistrlik darajasi beriladigan asosiy (4-6 ta semestr) bosqich (texnik mutaxassisliklarda buning o'rniga mutaxassis diplomi taqdim etiladi). Tayanch ta'lim bosqichi yakunida diplomoldi imtihoni o'tkaziladi. Diplom imtihoni esa tabiiy, texnik, ijtimoiy va iqtisodiy fanlar yakunlangandan so'ng o'tkaziladi. Asosiy diplomni olish uchun diplom ishi yoziladi, bu davr 1-2 semestrlik davrlarda olib borilishi mumkin. Germaniya universitetlarining davlat namunasidagi diplomlari oliy ta'lim talab etiladigan kasblarda ishlash huquqini beradi.

“Magistr” akademik darajasi uchun o'qish 6 ta semestr davomida olib boriladi. “Magistr” akademik darajasini olish uchun magistrlik imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish talab etiladi. Davlat namunasidagi diplomni va magistrlik darajasini olgandan so'ng Germaniya oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari “Doctorate” (doktor) ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshirishlari yoki dissertatsiya himoya qilishlari mumkin. Bu darajani faqat o'qituvchilik tajribasiga ega bo'lgan va dastlabki malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan shaxslar olishlari mumkin.

SHvetsiyada bakalavrlarni tayyorlash uchun umumta'lim maktablaridagi 12 yillik ta'lim yoki unga fanlar mazmuni bo'yicha tenglashtiriladigan ta'lim asos bo'ladi. Uch yillik bakalavriatdan so'ng magistraturada 1,5 yil o'qish ko'zda tutilgan. Doktorantura 4 yillik o'qishdan iborat, biroq 2 yillik o'qishdan so'ng talaba o'qishni yakunlash huquqiga ega, bunda unga muhandis diplomi beriladi.

Akademik yil 14 haftalik kuzgi va bahorgi semestrlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biriga imtihonlarini qayta topshirish va qarzlarni yo'qotish uchun ikkita oldingi va bitta keyingi haftalar qo'shiladi.

Gollandiya ta'lim tizimi britaniya yoki amerika ta'lim tizimlaridan farq qilib, ikki darajali diplomlarga asoslanmagan, biroq so'nggi paytlarda ta'lim xizmatlari bo'yicha dunyo bozoridagi raqobat tufayli universitetlar ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha ikki bosqichli (bakalavr va magistr) ta'lim tizimiga o'tishmoqda.

Gollandiya ta'lim tizimidagi ikki bosqichli “bakalavr – magistr” ta'lim tizimida diplom odatda 4 yillik kunduzgi ta'limdan so'ng, muhandislik ishi, tabiiy

fanlar va qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha esa 5 yillik ta'limdan so'ng beriladi. Oliy o'quv yurtlarini birlashtirish jarayonlari ularning sonini 350 tadan (1980 y.) 50 tagacha (1999 y.) kamaytirgan, hozirda ularning atigi 13 tasi universitetlar hisoblanadi (ochiq universitetdan tashqari).

Evropadagi Oksford, Kembrij, Sorbona, Praga universiteti, La Sapienza universitetlari 12-asrdan boshlab dunyo ta'limining beshigi hisoblanadi. SHunga qaramasdan 20-asrning 80-yillaridan boshlab Germaniya va Angliyada oliy ta'lim tizimida tub islohotlar davri boshlandi va ular tobora kengayib bordi va yaqin yillarda eski va "konservativ" hisoblangan fransuz ta'lim tizimidagi islohotlar bilan yakunlandi.

Bolonya jarayonlari asosida ta'limning tuzilmaviy va baholovchi umumiy tamoyillarga tomon harakatlanilmoqda, shu bilan birga har bir evropa davlati o'ziga xos ta'lim tizimini ham saqlab qolgan.

Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning ko'p bosqichli tuzilmasi Osiyo-Tinch okeani regionini davlatlarida o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Masalan, Xitoyda 12 yillik maktab ta'limidan so'ng kollejlarda va universitetlardagi bakalavriatda 4 yil, undan keyin magistraturada 3 yil va nihoyat doktoranturada 2-3 yil ta'lim olish ko'zda tutilgan.

YAponiyada talaba bakalavr darajasini olish uchun universitetda 4 yillik ta'limni o'tashi zarur, ulardan dastlabki ikki yili – mutaxassislik bo'yicha keng miqyosdagi umumta'lim tayyorgarligi va so'nggi ikki yili – mutaxassislikka qaratilgan. Fanlar majburiy va tanlov fanlariga bo'linadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim YAponiyada ikkita bosqichdan iborat: 2 yillik magistr darajasini beruvchi "master course" dasturi va 3 yillik doktor darajasini berish bilan yakunlanadigan "doctor course" dasturi.

SHunday qilib, xorijiy davlatlardagi ta'lim tizimlarining turli-tumanligi, ularning tuzilmasi va akademik daraja berishdagi turlicha yondashuvlarga qaramasdan ta'limni mutaxassis tayyorlashning ko'p bosqichli tizimiga, talabalarning mustaqilligi va mobilligini oshirishga, ta'limni shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib unifikatsiyalashga qaratilgan intilishlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tuzilmasi

Ta'kidlab o'tilganidek, Bolonya deklaratsiyasini kiritishni ikki bosqichli oliy ta'limni joriy qilishni ko'zda tutadi, bunda birinchi bosqich– talabalarning ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ijrochilik malakalarini o'zlashtirishga, ikkinchisi esa – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Berlin anjumani uchun tayyorlangan materiallarga ko'ra "bakalavr-magistr" tizimi sobiq sotsialistik davlatlar hududida 10 yillarcha muqaddam joriy qilingan. Biroq, u rasmiy xarakterga ega bo'lgan va amalda mehnat bozori bilan bog'liq bo'lmagan, uning joriy etilishi asosan ta'lim va fanning xususiy ehtiyojlariga qaratilgan edi.

SHular bilan bir qatorda oliy ta'limga qarashlarda "teaching" formatidan "learning" formatiga tomon o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ya'ni talabani "o'qitish" emas, balki talaba "o'qishi" kerak degan g'oya ustuvor bo'lmoqda. Bu g'oyaga ko'ra inson butun umri davomida o'qiydi, talaba fanga oid bilim, ko'nikma va

malakalarni mustaqil tarzda o'zlashtiradi, o'qituvchining vazifasi esa – talabaning shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holdaunga zarur yordamlarni ko'rsatishdir.

Mazkur tendensiya 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan o'zining qonuniy o'rniga ega bo'ldi. Unga ko'ra oliy va oliy ta'limdan keyingi kasbiy ta'lim ko'p bosqichli – bakalavriyat va magistratura tuzilmasi bo'yicha rivojlanadi. Uning muhim tamoyillardan biri – ta'limning uzluksizligi va uzviyligidir.

Bu Bolonya deklaratsiyasining asosiy holatlarini inobatga olgan holda milliy modelni yaratish uchun oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limda islohotlar zarurligini shart qilib qo'ydi.

SHuni ham ta'kidlash kerakki, Bolonya deklaratsiyasi nafaqat tuzilmani qayta qurishni, balki ta'lim dasturlarini ham o'zgartirishni nazarda tutadi.

Bolonya deklaratsiyasiga ko'ra joriy etiladigan ikki bosqichli "bakalavr-magistr" oliy ta'lim darajalari aslida anglosakson tuzilmasining umumiylikka etaklovchi instrumenti hisoblanadi, bunda kreditlar, imtihonlar va diplomlar o'zaro tan olinadigan darajaga keladi. Bunda tayanch bosqich (bakalavriyat) ta'lim kamida 3 yil davom etadi va amalda bozor ehtiyojlariga yo'naltiriladi.

Milliy ta'lim dasturlarining xalqaro tan olinishini, talabalarning va professor-o'qituvchilarning mobilligini ta'minlash, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hamda oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha

bosqichlarda uzviylikni ta'minlash maqsadida mutaxassislarni tayyorlashning uch pog'onali "bakalavr – magistr – doktor" tuzilmasi yagona kredit ta'lim tizimi bo'yicha ikkita bosqichda amalga oshiriladi: oliy ta'lim (bakalavr-magistr) va oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktor).

SHunday qilib, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarini modernizatsiya qilish ta'lim jarayonining tuzilmasi, mazmuni va tashkil qilinishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda, birinchidan, mutaxassislar tayyorlashning uch pog'onali "bakalavr – magistr – doktor" tuzilmasiga o'tiladi, ikkinchidan, o'rta ta'limdan keyin ikki bosqichli (oliy – oliy ta'limdan keyingi) tuzilma saqlanib qoladi, uchinchidan, kredit ta'lim tizimi qo'llaniladi. Bu ikkila holat ham ta'lim mazmunida sezilarli darajada aks etadi.

Bunda oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- keng fundamental bilimlarga ega, tashabbuskor, mehnat va texnologiyalar bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashuvchan yangi shakldagi mutaxassislar tayyorlanadi;

- oliy ta'lim tizimini demokratlashtirish orqali sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etishga bo'lgan qiziqishini oshirish;

- alohida oliy o'quv yurtlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tishga tayyorlash, elita oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- oliy o'quv yurtlarini boshqarishning yangi tamoyillari va amaliyotini shakllantirish, strategik rejalashtirish tizimini joriy etish va oliy o'quv yurtlarining avtonomligini oshirish;

- talabalarning sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini mustahkamlash, sifatli ta'lim xizmatlari taqdim etish uchun rahbarlarning mas'uliyatini belgilovchi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Ushbu topshiriqlarni oliy o'quv yurtlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish sharoitlarida jamoatchilik nazorati, keng akademik imtiyozlar berish, hamda o'quv jarayonini talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan tarzda tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish va o'qituvchilar orasida raqobat muhitini yaratish orqali amalga oshirish mumkin.

Oliy ta'lim bosqichlari bo'yicha O'zbekiston modeli tayanch bosqich kamida 3 yil davom etishi jihatidan Bolonya jarayonlari talablariga va har biri 2 pog'onadan iborat 2 bosqichdan iborat ekanligi bo'yicha amerika modeliga mos keladi.

Bakalavriat dasturi kasbiy faoliyatning umumiy, integrallashgan jihatlarini inobatga olish, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish va mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirish orqali ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlar asosini egallashni nazarda tutuvchi keng tayanch kasbiy tayyorgarligini nazarda tutadi.

Magistraturada ta'lim mutaxassislikka tayyorlov va ilmiy-pedagogik tayyorlovni nazarda tutadi. Magistratura ta'lim dasturlarida ta'limning ilmiy metodologik yo'nalganligi va soha bo'yicha chuqur mutaxassislik tayyorgarligi ko'zda tutilishi zarur. Magistratura bitiruvchilariga "magistr" akademik darajasi taqdim etiladi. Magistrlar doktoranturada o'qishni davom ettirish huquqiga egadirlar.

Doktorantura oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning yakuniy ta'lim bosqichi hisoblanadi. Doktorlik dasturlarining o'ziga xosligi ta'lim va izlanuvchilik faoliyati o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash, keng ilmiy, o'quv va metodologik tayyorlov, mamlakatdagi o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning akademik mobilligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Doktorantura dasturini egallagan va doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga falsafa doktori (PhD) ilmiy unvoni, mutaxassislik bo'yicha doktoranturani o'zlashtirganlarga esa fan doktori ilmiy unvonlari (tibbiyot, san'at, ta'lim, huquq, texnika, kimyo va h.k.) beriladi.

SHunday qilib, ta'lim tizimlarini yagona xalqaro ta'lim muhitiga muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasida oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning quyidagi kasbiy ta'lim bosqichlari joriy etiladi:

1) bakalavriat – birinchi bosqich dasturi (o'rta ta'limdan keyingi birinchi pog'ona) bo'lib, o'qish muddati 4 yil, o'z navbatida ikkita bosqichdan iborat: pastki (oraliq daraja) – 2 yil va yuqorigi (akademik daraja) – 2 yil;

2) magistratura – ikkinchi bosqich dasturi (o'rta ta'limdan keyingi ikkinchi pog'ona) bo'lib, o'qish muddati 1-2 yilni tashkil etadi, bunda chuqur mutaxassislik va ilmiy-pedagogik tayyorlov amalga oshiriladi;

3) doktorantura – oliy ta'limdan keyingi ikkinchi bosqich dasturi (o'rta ta'limdan keyingi uchinchi pog'ona) bo'lib, o'qish 3-4 yil davom etadi va ikki bosqichda amalga oshiriladi – falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy unvonlariga erishish nazarda tutiladi.

Talabalarning o'qishini ko'chirish, chetlashtirish va o'qishga tiklash mexanizmi

Bolonya deklaratsiyasida tushunarli, shaffof va taqqoslanuvchan darajalar tizimlaridan diplomlarga ilovalar bergan holda foydalanish (bitiruvchilarning ishga joylashishini ta'minlash va oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini kuchaytirish); ECTS kreditlar tizimi qabul qiluvchi ta'lim muassasalari tomonidan tan olinganda uni oliy ta'limning barcha bosqichlarida talabalar mobilligini oshiruvchi vosita sifatida qabul qilish; mobillikni rag'batlantirish va talabalar, o'qituvchilar, ta'lim menejerlari, tadqiqotchilar va h.k. larning erkin harakatlanishi uchun sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Evropa ta'lim muhitining 2010 yilgacha shakllanishi bitiruvchilarning ishga joylashish qobiliyatini oshirish, fuqarolarning mobilligini oshirish, oliy ta'limning raqobatbardoshligini kuchaytirish bilan bog'liq bir nechta vazifalarga qaratilgan edi.

Bolonya jarayonining asosiy holatlaridan biri talabalarning mobilligini ta'minlash hisoblanadi, bu esa mamlakat bo'ylab va uning tashqarisida erkin harakat qilish imkoniyatini anglatadi. SHubhasiz, talabalarning mavjud chiziqli ta'limdagi mobillik tizimi imkonsiz darajada eskirdi, shu sababli u fuqarolarning huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilishi shart. SHundan kelib chiqqan holda, talabalarni ko'chirish, chetlashtirish va tiklashning kredit ta'lim tizimi xususiyatlariga mos keluvchi yangi mexanizmini ishlab chiqish zarur. SHu sababli, ko'rsatilgan masalalarni amalga oshirishda kredit ta'lim tizimi qoidalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

1-qoida. Imtixon sessiyalari natijalari bo'yicha akademik qarzi bo'lgan talabalarni chetlashtirish lozim bo'lmaydi.

2-qoida. Talabalar oliy o'quv yurtlaridan o'z xohishlariga ko'ra, tibbiy ko'rsatmalar asosida, Ustav va ichki tartib-qoidalar buzilishi bilan bog'liq holatlarda chetlashtirilishi mumkin. CHetlashtirilgan talabaga belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma (Transcript) taqdim etiladi.

3-qoida. Talabani kursdan kursga o'tkazish uning GPA ko'rsatkichini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Belgilangan o'tish balini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun kursida qoldiriladi. SHunday qilib, talaba bitta kursda bir necha marta o'qishi mumkin.

4-qoida. Talaba qachon chetlashtirilganligidan qat'iy nazar tiklanish huquqiga ega. Bunda talaba kamida bitta semestrni tugatgan bo'lishi shart. Talabalarning chetlashtirish vaqtigacha bo'lgan kreditlar miqdori oliy o'quv yurti tomonidan to'laligicha hisobga olinadi. CHetlashtirilgan talaba uning transkriptida zarur prerekvizitlar mavjud bo'lganda hohlagan mutaxassislikka va hohlagan kursga tiklanishi mumkin. Ushbu qoidaga amal qilish, ta'lim sohasida markaziy ijro organi tomonidan mazkur jarayonni markazlashtirishgan tarzda boshqarishdan voz kechishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida ta'limni demokratlashtirishga, oliy o'quv yurtlarining akademik erkinligini kengaytirishga yordam beradi.

5-qoida. Talaba faqat pullik to'lov asosida tiklanishi va o'qishni davom ettirishi mumkin.

6-qoida. Kredit ta'lim tizimiga o'tish sharoitlarida tiklash jarayoni ertaroq, akademik davr boshlanishidan kamida bir oy oldin boshlanishi maqsadga muvofiq. Oliy o'quv yurti rahbariyati tiklash haqidagi qarorini o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan 2-3 hafta oldin qabul qilishi shart, chunki talaba fanlarga yozilish va o'zining shaxsiy o'quv rejasini shakllantirish imkoniga ega bo'lishi lozim.

7-qoida. O‘quv rejalaridagi farqlarni aniqlash. O‘quv rejalaridagi farqlar 5 ta fandan ortmasligi shart, ulardan 2-3 tasi majburiy fan bo‘lishi mumkin. Oliy o‘quv yurti tanlov bo‘yicha fanlar farqini aniqlashda mustaqillikka ega. O‘quv rejalaridagi farqlarni topshirish muddatini kamida bir oy (yozgi semestrni ham hisobga olganda) qilib belgilash lozim, bu davr mobaynida talaba farq bo‘yicha fanlarga yozilishi, ularning dasturlarini o‘zlashtirishi va yakuniy nazorat topshirishi zarur.

Agar talaba belgilangan muddatda o‘quv rejalaridagi farqlarini yo‘qotmagan bo‘lsa, bu holat keyinchalik akademik qarz sifatida hisobga olinishi va kursdan kursga o‘tkazishda uning GPA ko‘rsatkichiga ta’sir qilishi mumkin.

8-qoida. Tiklash tartibi:

- 1.talaba oliy o‘quv yurti rektori nomiga tiklash haqida ariza beradi, bunda u o‘zining o‘qishni davom ettirish istagini bayon qiladi. Arizaga o‘tilgan fanlar haqidagi o‘rnatilgan tartibdagi Transkript ilova qilinadi;
- 2.fakultet dekani taqdim etilgan Transkriptdagi axborotlar asosida o‘qish kursini, o‘quv rejalaridagi farqlarni aniqlaydi;
- 3.fakultet dekani vizasi asosida RO ko‘rsatilgan farqni topshirish muddatini belgilaydi;
- 4.fakultet dekani, RO registratori, o‘quv ishlari prorektori vizalariga muvofiq oliy o‘quv yurti rektori talabani tiklash haqida buyruq chiqaradi.

9-qoida. Talabani o‘qishini bir oliy o‘quv yurtidan boshqasiga o‘tkazish tartibi:

- 1.talaba oliy o‘quv yurti rektori nomiga o‘qishini ko‘chirish haqida ariza bilan murojaat qiladi, bunda u o‘qishini o‘tkazish istagini bayon qiladi; arizaga tegishli fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan reyting daftarchasi nusxasi ilova qilinadi;
- 2.fakultet dekani o‘qish kursi va o‘quv rejalaridagi farqni aniqlaydi; fakultet dekani vizasi asosida RO ko‘rsatilgan farqni topshirish muddatini belgilaydi;
- 3.fakultet dekani, RO registratori, o‘quv ishlari prorektori vizalariga muvofiq oliy o‘quv yurti rektori talabani tiklash haqida buyruq chiqaradi.
- 4.uch kun muddat ichida talaba oldin o‘qigan oliy o‘quv yurtiga talabani shaxsiy hujjatlariga so‘rov yuboriladi;
- 5.talaba oldin o‘qigan oliy o‘quv yurti rektori boshqa oliy o‘quv yurtidan so‘rov qabul qilinganidan keyin uch kun muddat ichida talabani shaxsiy hujjatlarini pochta orqali jo‘natish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

10-qoida. Oliy o‘quv yurti ichida o‘qishni ko‘chirish.

Talabani bir oliy o‘quv yurti ichida bir ta’lim shaklidan boshqasiga va bir yo‘nalishdan boshqasiga o‘tkazilishi pullik to‘lov asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1.talaba o‘qishini ko‘chirish haqida oliy o‘quv yurti rektori nomiga ariza bilan murojaat qiladi; arizaga tegishli fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan reyting daftarchasining nusxasi ilova qilinadi;
- 2.fakultet dekani o‘qish kursi va o‘quv rejalaridagi farqni aniqlaydi;
- 3.fakultet dekani vizasi asosida RO ko‘rsatilgan farqni topshirish muddatini belgilaydi; kunduzgi o‘qish shaklidan sirtqi o‘qish shakliga o‘tkazishda farqlarni topshirish muddati bir oydan ko‘proq vaqtga belgilanishi yoki talabaga ko‘rsatilgan farqlarni kunduzgi ta’limda topshirish huquqi berilishi mumkin.

4.fakultet dekani, RO registratori, o‘quv ishlari prorektori vizalariga muvofiq oliy o‘quv yurti rektori talabani bir ta‘lim shaklidan boshqasiga yoki bir yo‘nalishdan boshqasiga o‘tkazish haqida buyruq chiqaradi.

Sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllaridagi o‘quv jarayonining o‘ziga xos jihatlari

Kredit ta‘lim tizimi sharoitida sirtqi ta‘limda o‘quv jarayonini tashkil qilishning o‘ziga xosligi shundaki, u talabalarning umumiy mehnat sig‘imini, auditoriya va mustaqil ish nisbatini, o‘quv yilidagi kontakt haftalar sonini aniqlash bilan bog‘liqdir.

Talabalarning shaxsiy ta‘lim traektoriyalarini rejalashtirish sirtqi ta‘lim shaklini tashkil qilishning quyidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ishchi o‘quv rejalar asosida amalga oshiriladi:

- 1) sirtqi ta‘limning ishchi o‘quv rejasi o‘z mazmuniga va umumiy mehnat sig‘imiga ko‘ra kunduzgi ta‘lim shaklidagi o‘quv rejasi bilan mos bo‘lishi shart;
- 2) sirtqi ta‘lim shakli bo‘yicha ham bakalavriat ta‘lim dasturini o‘zlashtirish uchun 240 kredit ajratiladi;
- 3) auditoriya va mustaqil ish uchun ajratilgan kreditlarning umumiy nisbati mos ravishda 10-20% va 80-90% bo‘lishi tavsiya etiladi;
- 4) kontakt soatlar miqdori semestr davomiyligiga karrali bo‘lishi zarur, semestr davomiyligi odatda bir yilda 6-8 haftani tashkil etadi. Semestr ikkita sessiyaga – o‘quv (3-4 hafta) va imtihon (3-4 hafta) ajratilishi mumkin;
- 5) sirtqi shaklda o‘qishning me‘yoriy muddati – 5 yil, biroq bu muddat oliy o‘quv yurti tomonidan 6 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Kunduzgi ta‘limdan farqli ravishda sirtqi talabalar uchun oraliq nazorat imtihon sessiyasida fan bo‘yicha imtihongacha bo‘lgan davrda tyutor tomonidan nazorat ishlari, referatlar, hisob-chizma ishlari va h.k. larni hisobga olgan holda bir marta o‘tkaziladi.

Sirtqi talabalarga talabaning ma‘lumotnoma-yo‘llanmasi va o‘quv-uslubiy majmuasi taqdim etiladi, unda shaxsiy o‘quv rejasi, tanlov fanlari katalogi, sillabus, amaliy mashg‘ulotlar rejasi, faol tarqatma materiallar, TMI ni bajarish uchun uslubiy materiallar, masofaviy ta‘lim materiallari (elektron materiallar, keyslar va boshqalar) kabi materiallar jamlangan bo‘ladi. O‘quv-uslubiy materiallarda talabaning o‘qituvchi bilan virtual aloqaga chiqishi uchun amaldagi murojaat manzillari ko‘rsatilishi lozim. Boshqacha aytganda, talaba oliy o‘quv yurtidagi mavjud saytlar, portallar, elektron pochta va shu kabi axborotlarga ega bo‘lishi zarur. O‘quv jarayoniga barcha zamonaviy virtual vositalar jalb qilinishi zarur.

Masofaviy ta‘lim zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan, masofadan turib o‘qituvchi va talaba o‘rtasida bevosita muloqot mavjud bo‘lmagan holda ta‘lim berishga imkon beruvchi ta‘lim jarayonini tashkil qilish usulidir. Masofaviy ta‘lim jarayoni masofaviy ta‘lim portali, keys-texnologiyalar, Internet-texnologiyalar va TV-texnologiyalar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Masofaviy ta‘lim portallari sifatida hozirgi kunda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida keng ommalashgan Moodle LMS va boshqa portallar, shuningdek,

Google Classroom, o'qituvchilarning shaxsiy saytlari, «E-MINBAR» platformasi, axborot etkazish va nazoratni amalga oshirishga imkon beruvchi «bulutli texnologiyalar» orqali amalga oshirilishi mumkin.

Keys texnologiyalar odatda fanlar mazmuni bilan batafsilroq tanishishga va o'z bilimini tekshirish bo'yicha qator nazorat tadbirlarini o'tkazishga imkon beruvchi o'quv-uslubiy hujjatlar majmualari vositasida amalga oshiriladi.

Internet texnologiyalar odatda o'quv kursini mustaqil o'rganishga, o'qituvchidan maslahat olishga, onlayn rejimida real vaqtda yakuniy nazoratdan o'tishga imkon beruvchi o'quv materiallariga tarmoqda ruxsat berish orqali amalga oshiriladi. Internet-texnologiya shakllaridan biri – tyutorlik sinfi hisoblanadi, u rejalashtirilgan O'RTMI ni sirtqi va masofaviy ta'lim doirasida o'tkazishga imkon beradi.

TV-texnologiyalar odatda o'quv maqsadlari uchun ishlab chiqilgan elektron formatdagi kursni imtihon sessiyalariga tayyorgarlik doirasida to'liq eshitishga imkon beruvchi audio-, videomateriallar vositasida amalga oshiriladi.

O'quv jarayonining uslubiy ta'minoti

Mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasi

Kredit ta'lim tizimi sharoitida talabalar va professor-o'qituvchilar mobilligi ta'lim muassasasining akademik erkinligi va vakolatlarini kengaytirish orqali ta'minlanadi. Bunda talabalarning akademik erkinligi ularning ta'lim dasturiga kirgan fanlarni o'zlashtirishida mustaqil ishlarning ahamiyatini yuksaltirish orqali o'z faoliyatini va mustaqil bilim olishini tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lim tizimida mutaxassis tayyorlash modelini o'zida aks ettiruvchi rasmiy hujjat – mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasi (MO'UM) hisoblanadi.

MO'UM bakalavr, magistr va doktorantlar tayyorlash konsepsiyasini aniqlovchi hujjatdir. MO'UM har bir mutaxassislik bo'yicha talabalarni o'qitishning maqsadlari, mazmuni va usullarini aniqlaydi.

MO'UM o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- davlat ta'lim standartlari;
- malaka talablari;
- o'quv rejalari;
- tanlov fanlari katalogi;
- fanning o'quv-uslubiy majmuasi.

Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta'lim standartlari (DTS) ta'lim sohalari bo'yicha «Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va

yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim sohalari tarmoqlarini rivojlantirish kabi maqsadlar va oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi turli normativ-huquqiy hujjatlarga hamda xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, fanlar dasturlari va boshqalarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim sohasining muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshirilishi belgilangan. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati to'rt yil qilib belgilangan. Alohida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalavriat dasturlari joriy etilishi belgilangan. Magistraturada mutaxassislar tayyorlash ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Ta'lim dasturlarida kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha me'yoriy o'qish muddatlari farqlanishi mumkin. Kechki va sirtqi ta'lim shakllarida me'yoriy o'qish muddatlari kunduzgi ta'limning me'yoriy muddatiga nisbatan kamida teng bo'lishi, ammo bakalavriatda bir yildan, magistraturada esa 6 oydan ko'p bo'lmasligi talab etilgan. Kechki va sirtqi ta'lim shakllarida me'yoriy o'qish muddatlari oliy o'quv yurti tomonidan mustaqil belgilanadi.

Bir o'quv yili uchun kunduzgi ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim dasturining hajmi 60 kreditga teng deb olingan. Ta'lim shaklidan qat'iy nazar ta'lim dasturining umumiy hajmi me'yoriy muddati bir yil bo'lganda

– 60 kreditni, ikki yil bo'lganda – 120 kreditni, uch yil bo'lganda – 180 kreditni, to'rt yil bo'lganda – 240 kreditni tashkil etadi.

Ta'lim dasturlarini amalga oshirishda oliy o'quv yurti elektron o'qitish va masofaviy ta'lim texnologiyalardan keng foydalanishi tavsiya etilgan. Xususan, jismoniy cheklangan, nogiron talabalarni o'qitishda elektron o'qitish va masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'quv materiallarini erkin shaklda olish va uzatish imkoniyati ta'minlanishi zarurligi ta'kidlangan.

Davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagilar asos qilib olingan:

- 1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 5-sonli Qarori.

- 4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 20 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 341-sonli Qarori.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1533-sonli Qarori.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi «2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi PQ-1754-sonli Qarori.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-4456-sonli Farmoni.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “CHet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli Qarori.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrda “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 365-sonli Qarori.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 29 dekabrda “Respublika oliy ta’lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 371-sonli Qarori.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvarda “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.
- 13.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 mardagi “Magistratura to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash xaqida”gi 36-son qarori.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori;
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyulda “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori;
- 16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 30 sentyabrda «Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2414-sonli qarori;
- 17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyulda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori;
- 18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 4 aprelda 5002-sonli topshirig‘i;

19.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018 yil 7 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarining yangi 2018/2019 o‘quv yiliga samarali tayyorgarlik ko‘rish ishlarini tashkillashtirish to‘g‘risida”gi 504-sonli buyrug‘i.

20.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.

21.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020 yil 9 yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig‘i.

22.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

23.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 yanvardagi ilm-fanni rivojlantirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishi hamda geologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalariga tashrif davomida o‘tkazilgan 5-sonli majlis bayoni.

DTS tuzilmasi quyidagi bo‘limlardan tashkil topgan:

- 1.DTS ni ishlab chiqish asoslari
- 2.Qo‘llanish sohasi
- 3.Atamalar, ta‘riflar, qisqartmalar
- 4.Bitiruvchilarining kasbiy faoliyatlari tavsifi
- 5.Ta‘lim sohalari bitiruvchilarining kompetensiya darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar
- 6.Ta‘lim sohalari bo‘yicha o‘quv rejalari tuzilmasi
- 7.Ta‘lim sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini baholash

Davlat ta‘lim standartida o‘quv rejalardagi har semestr uchun kreditlar hajmi 30 kredit qilib belgilangan, fanlarga kamida 3 kredit ajratiladi.

Ta‘lim dasturlari 2 xil – majburiy va tanlov fanlaridan iborat bo‘ladi. Majburiy fanlarga kreditlari malaka talablarida belgilangan fanlar kiradi. Tanlov fanlariga – oliy o‘quv yurti tomonidan belgilanadigan va talabalar tomonidan tanlanadigan fanlar ro‘yxati kiradi.

Bakalavriatda o‘qish 4 yil davomida 204 hafta davom etadi. Bunda nazariy, amaliy ta‘lim va attestatsiyalarga – 40-60%, ta‘tilga – 10-30%, malaka amaliyotiga – 15-25% va bitiruv malakaviy ishiga – 2-7% hafta ajratilgan. Magistratura o‘qish 2 yil davomida 100 hafta davom etadi. Bunda nazariy ta‘lim, ilmiy faoliyat va attestatsiyalarga – 60-76%, ta‘tilga – 14-24%, ilmiy amaliyot (stajirovka) ga – 6-10% hafta ajratilgan.

Malaka talablari

Malaka talablari (MT) alohida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlariga moslashuvchan tarzda ishlab chiqiladi.

Malaka talablari o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab olgan:

1. Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining umumiy tavsifi.
- 2.Tayyorlanadigan kadrlarning umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalariga talablar.
- 3.O‘quv rejalari va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Malaka talablarida yoʻnalish va mutaxassisliklar uchun majburiy va tanlov fanlarining hajmi hamda oʻquv davrining haftalardagi taqsimoti DTS da keltirilgan chegaralardan chiqmagan holda aniq qiymat bilan belgilab qoʻyiladi.

Bitiruvchining majburiy fanlar boʻyicha oʻzlashtirishi kerak boʻlgan kompetensiyalar aniq keltiriladi, oʻquv reja (tanlov fanlarisiz) keltirilib unda barcha majburiy fanlar nomi va ularga ajratilgan kreditlar aniq belgilab qoʻyiladi.

Oʻquv rejalar

Oʻquv rejalar tez oʻzgaruvchan bozor muhiti uchun har tomonlama rivojlangan mutaxassisni tayyorlashga yoʻnaltirilgan. Oʻquv rejasi taʼlim dasturining tuzilmasini va fanlar roʻyxatini oʻzida aks ettiradi. Oʻquv rejalarini tuzilmasi DTS va MT asosida belgilanadi.

Bakalavriatda fanlar tuzilmasi 4 ta blokda (gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari va qoʻshimcha fanlar), magistraturada esa ilmiy faoliyat turi ham qoʻshilib 3 ta blokda (umummetodologik fanlar, mutaxassislik fanlari, ilmiy faoliyat) jamlangan. Fan bloklarining har biri majburiy va tanlov fanlarini oʻz ichiga oladi.

Talaba u yoki bu fanni oʻrganayotib kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur boʻlgan aniq hajmdagi bilim, koʻnikma va malakalarni orttiradi. Fanlarda qanday bilimlar qay tarzda oʻzlashtirishi belgilab beriladi. Fanlar ichida sohadagi soʻnggi ilmiy yutuqlardan kelib chiqib mavzular, qonunlar, dalillar jamlanadi va ularning mazmuni talqin qilinadi. Oʻquv rejalarida fanlar mantiqiy ketma-ketlikda, oʻzaro bogʻliqlikda joylashtiriladi. Bunga fanlarni prerekvizitlar va postrekvizitlarga ajratish orqali erishiladi.

DTS va MT ga muvofiq fanlar bloklarga jamlanadi. Oʻquv rejalarida fanlar roʻyxatini shakllantirishda quyidagi tamoyillardan kelib chiqish zarur.

Bakalavriatda gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlangan kadrlarni tayyorlashga yoʻnaltiriladi. Umumkasbiy fanlar boʻlgʻusi mutaxassisda tayanch va umumkasbiy bilimlarni shakllantiradi. Ixtisoslik fanlari kasbiy faoliyat uchun zarur boʻlgan maxsus bilim, koʻnikma va malakalarni beradi. Qoʻshimcha fanlar mehnat bozorining, kadrlar buyurtmachilarining talablaridan kelib chiqib oliy oʻquv yurti tomonidan belgilanadi.

Magistraturada umummetodologik fanlar bloki magistrning pedagogik, metodologik va til koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mutaxassislik fanlari sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va ularning natijalarini oʻzida aks ettirib, kasbiy faoliyat uchun zarur boʻlgan tor doiradagi bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzida aks ettiradi. Ilmiy faoliyat bloki magistrant tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy seminarlar va ilmiy amaliyot (stajirovka) lar uchun ajratilgan.

Oʻquv rejalarini 3 xil shaklda ishlab chiqiladi – namunaviy oʻquv reja (NOʻR), talabning shaxsiy oʻquv rejasi (SHOʻR) va ishchi oʻquv reja (IOʻR). Barcha shakldagi oʻquv rejalarida fanlarni yagona kodlash tizimi qoʻllaniladi. Kodlar fanlarning harf va raqamli ifodasi boʻlib, fanlar nomi va tartibini koʻrsatadi.

NOʻR da fanlarning mazmuni va ish hajmi koʻrsatiladi, hamda ilovalarda fanlarning qisqa bayoni keltiriladi. NOʻR tayanch hujjat hisoblanadi, u butun oʻquv davri mobaynida oʻzgarmaydi, har bir majburiy fan uchun aniq kreditlarni

belgilaydi. Tanlov fanlari uchun faqat umumiy kreditlar ko'rsatiladi. NO'R oliy o'quv yurti rektori tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri hamda asosiy kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. NO'R asosida SHO'R va IO'R lar ishlab chiqiladi.

SHO'R ni shakllantirishda talabaga NO'R ga qo'shimcha ravishda yana tanlov fanlari katalogi (TFK) ham zarur bo'ladi. TFK asosida fanlarning o'quv-uslubiy majmualari va boshqa turdagi o'quv-tashkiliy hujjatlar ishlab chiqiladi.

NO'R namunasi ilovada 2-shaklda, SHO'R namunasi 4-shaklda, IO'R namunasi 5-shaklda keltirilgan.

Tanlov fanlari katalogi

Kredit ta'lim tizimida tanlov fanlari katalogi (TFK) mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasining majburiy elementlaridan biri sanaladi va u oliy o'quv yurtining Uslubiy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Mutaxassislikning TFK talaba tomonidan o'zining o'quv traektoriyasini moslashuvchan tarzda shakllantirish uchun tanlanadigan fanlar ro'yxatidan iborat.

TFK oliy o'quv yurtining barcha yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha tuziladi va kelgusida kasbiy faoliyat turlari hamda va mutaxassisning har tomonlama etuk kadr bo'lib shakllanishi uchun zarur bo'lgan fanlarni o'zida qamrab oladi. TFK da ta'lim dasturidagi barcha tanlov fanlarining qisqa mazmuni keltiriladi.

TFK da yo'nalishning (gumanitar va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fan bloklari) yoki mutaxassislikning (umummetodologik va mutaxassislik fan bloklari) tanlov fanlarining kodlari, kreditlari va mumkin qadar prerekvizitlari va postrekvizitlari keltiriladi.

TFK talabaning shaxsiy qobiliyatlari, o'sish istiqbollari, ishlab chiqarishning talabalari asosida edvayzer va dekanat rahbarligida SHO'R tuzishda qo'llaniladi. Talabaning SHO'R ga prerekvizitlar va postrekvizitlar yordamida tuzatishlar orqali fanlarni o'rganish traektoriyasi moslashuvchan qilinadi.

SHO'R har bir talabaning o'quv traektoriyasini belgilab beradi. SHO'R butun o'quv davri uchun belgilangan tartibda RO da talabalarning oldindan fanlarga yozilishi tartibida shakllantiriladi (Enrollment) va har o'quv yilida edvayzerning yordami bilan shaxsan talaba tomonidan tuzatishlar kiritiladi.

Talabaning SHO'R dekan tomonidan 3 nusxada tasdiqlanadi va birinchisi – o'qituvchilarning o'quv yuklamasini hisoblash va o'quv rejasining bajarilishini nazorat qilish uchun dekanatda, ikkinchisi – yakuniy nazorat va attestatsiyalarni tashkil qilish uchun RO da, uchinchisi – talabaning o'zida saqlanadi.

IO'R o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini hisoblash uchun asos bo'lib dekanatlar tomonidan barcha fanlarga yozilgan va o'qish uchun to'lovni amalga oshirgan talabalarning SHO'R to'plami asosida tuziladi. IO'R rektor tomonidan uslubiy kengash tavsiyasi asosida tasdiqlanadi. IO'R dars jadvallari tuzish va professor-o'qituvchilar shtatini hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quv rejalaridagi fanlarni halqaro nomlar asosida kodlash maqsadga muvofiq. Quyida namuna sifatida kimyoviy texnologiya yo'nalishi bo'yicha kodlash namunasi keltirilgan:

HNSD – Humanities and Natural-Science disciplines (Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar)

MATH – Mathematics (Matematika)
 ITECH – Information Technologies (Axborot texnologiyalari)
 PHYS – Physics (Fizika)
 GPRD – General professional disciplines (Umumkasbiy fanlar)
 INCH – Inorganic Chemistry (Anorganik kimyo)
 ORCH – Organic Chemistry (Organik kimyo)
 PHCH – Phisic Chemistry (Fizik kimyo)
 CHAN – Chemical Analysis (Kimyoviy tahlil)
 PHCA – Phisic-Chemistry analysis (Fizik-kimyoviy tahlil)
 GCHT – General Chemical Technology (Umumiy kimyoviy texnologiya)
 ENGR – Engineering Graphics (Muhandislik grafikasi)
 MECH – Engineering mechanics (Muhandislik mexanikasi)
 THPS – Theory of Probability and Statistics (Ehtimollar nazariyasi va statistika)
 EEBE – Electrical Engineering and Basics of Electronics (Elektrotexnika va elektronika asoslari)
 THED – Chemical Thermodynamics (Kimyoviy termodinamika)
 PROC – Technological processes and equipment (Texnologik jarayonlar va qurilmalar)
 PMOD – Process Modeling (Texnologik jarayonlarni modellashtirish)
 SPEC – Special disciplines (Ixtisoslik fanlari)
INSP – Introduction to the specialty (Ixtisoslikka kirish)
 POLY – Tehcnology of Polymers (Polimerlar texnologiyasi)
 MATS – Material Sciences (Materialshunoslik)
 DCHE – Design of Chemical Enterprises (Kimyoviy ishlab chiqarishni loyihalash)
 ADDD – Additional disciplines (Qo‘shimcha fanlar)
 PRGR – Practices and Graduation (Amaliyotlar va bitiruv ishi)
 PRAC2 – Introductory practice (Tanishuv amaliyoti)
 PRAC4,6 – Professional practice (Kasbiy amaliyot)
 PRAC8 – Undergraduate practice (Bitiruv oldi amaliyoti)
 GRAD8 – Preparation of Graduate Work (Bitiruv ishini tayyorlash)

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi

Kredit ta’lim tizimi o‘qituvchilarning ishini sezilarli darajada o‘zgartirib yuboradi, ular o‘z oldiga doim o‘zini o‘zi takomillashtirish va o‘z bilimini oshirish, o‘quv jarayonining yangi o‘quv-uslubiy ta’minotini yaratish zaruriyatini qo‘yishadi. Bunda eng avvalo auditoriyada foydalaniladigan materiallar mazmuniga jiddiy e’tiborni qaratgan holda talabalarning mustaqil ishi yanada sifatli va ahamiyatli bo‘lishi ta’minlanadi. Talabalarning bilish faoliyatini, ayniqsa auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish va ularni boshqarish kompleks uslubiy va didaktik ishlanmalar bo‘lishini nazarda tutadi.

Kredit ta’lim tizimida talabalarning qiziqishlarini to‘liq hisobga olish, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini ta’minlash, o‘qituvchilar o‘rtasida raqobat muhitini yaratish, turli ta’lim usullarini takomillashtirish va qo‘llashni, shu jumladan o‘quv-uslubiy ta’minot sifatini yaxshilashni ham nazarda tutadi. Kredit

ta'lim tizimi har bir fan bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va joriy qilishni nazarda tutadi.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi (O'UM) mavjud an'anaga ko'ra o'quv-ijodiy jarayonlarning tashkiliy-uslubiy ta'minotining asosi hisoblanadi. SHunga muvofiq, fanlarning O'UM ni yaratish, sinovdan o'tkazish, takomillashtirish masalalariga pedagogik izlanishlarda muhim e'tibor qaratiladi. Fanlarning O'UM uzluksiz ta'limning barcha bo'g'in va tarmoqlarida axborot muhitini mustahkamlash va rivojlantirish va resurs bilan ta'minlashning muhim omili sanaladi.

Fanlarning O'UM oliy ta'lim DTS va MT, yo'nalish va mutaxassisliklarning namunaviy va ishchi o'quv rejalari mazmuniga muvofiq ishlab chiqiladi va fanlarning asosiy mazmunini o'zida aks ettiradi. Bularning hammasi talabalarning fanlarni va o'z o'quv traektoriyasini tanlashini engillashtirishga qaratilgan.

Fanlarning o'quv-uslubiy majmuasi quyidagi vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan:

- aniq mutaxassislikning ta'lim dasturida o'quv fanining o'rni va rolini ko'rsatish;
- ta'lim dasturida fanlararo mantiqiy bog'liqliklarni amalga oshirish;
- o'quv vaqtini mavzular va o'quv mashg'ulotlari turlari bo'yicha taqsimlash;
- talabalarning auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishini tashkil qilish;
- talabalarning bilim olish va ijodiy faoliyatini faollashtirish;
- o'quv va izlanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash. Odatda, fanning O'UM namunaviy dastur, ishchi o'quv dasturi, glossariy, qisqa ma'ruza matnlari, uslubiy materiallar, talabalarning mustaqil ishlashi uchun o'quv-amaliy materiallar, nazorat-o'lchov materiallari va zarur adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Fanning O'UM kafedra majlisida va o'quv-uslubiy komissiya tomonidan muhokama qilinadi.

Quyida fanning O'UM ning namunaviy tuzilmasi keltirilgan.

1-bo'lim. Namunaviy dastur.

2-bo'lim. Ishchi o'quv dasturi (Syllabus).

3-bo'lim. Glossariy.

4-bo'lim. Ma'ruza matni (mavzu nomi, maqsadi, kalit so'zlar, asosiy masalalar (reja) va ularning qisqa mazmuni, mazmunni ifodalovchi sxemalar, formulalar, jadvallar, diagrammalar va h.k., nazorat savollari, tavsiya qilinadigan adabiyotlar).

5-bo'lim. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalar:

- amaliy mashg'ulotlar bo'yicha: amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi, asosiy masalalar, uslubiy tavsiyalar, amaliy topshiriqlar, adabiyotlar, ilovalar (tarqatma materiallar).

- laboratoriya mashg'uloti bo'yicha: laboratoriya ishi mavzusi, maqsadi, qo'llaniladigan jihozlar va materiallar ro'yxati, nazariy material (zarur nazariy tushunchalar va qurilmaning konstruksiyasi), xavfsizlik qoidalari, ishni bajarish tartibi, hisobot shakllari, nazorat savollari, adabiyotlar).

6-bo'lim. TMI bo'yicha topshiriqlar (topshiriq mavzusi, maqsadi, yo'riqnoma (yoki vodkast), ko'p so'raladigan savollar (FAQ), topshiriq andozasi, tarqatma materiallar).

Kredit ta'lim tizimi TMI ni yanada yuqori sifatda tashkil qilishni va nazorat qilishni talab qiladi. TMI referat, keys, krossvord, masala ishlash, mashq qilish kabi uy topshiriqlarini bajarishni o'z ichiga oladi. TMI ning samaradorligi uning uslubiy ta'minlanganligiga, internet resurslariga va h.k. larga ko'proq bog'liq.

7-bo'lim. O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari (O'RTMI - Office hours). Bu auditoriyada o'tkaziladigan kredit ta'lim tizimidagi o'quv ishlari shakllaridan biri sanaladi. O'RTMI ikkita – maslahat va nazorat vazifalarini bajaradi. O'RTMI bu talaba va o'qituvchining birgalikdagi ishi hisoblanadi, chunki bu mashg'ulotlar dialog rejimida, masalan, trening, bahs-munozara, ish va didaktik o'yinlari, taqdimot, keys tuzish, shaxsiy yoki guruh loyihalarini ishlab chiqish va shu kabi shakllarda olib boriladi.

Har bir O'RTMI uchun muayyan masalalarni aniqlashtirishga, ularni kengaytirishga, u yoki bu vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilishga, masala ishlashga yordam beradigan materiallar tayyorlab qo'yilishi zarur (keys, rolli o'yinlar, testlar, krossvordlar va h.k.).

O'RTMI ning an'anaviy turlari – hisob-chizma ishlari, kurs ishi, kurs loyihasi, o'quv keyslaridir. Bu ishlar mukammal uslubiy ta'minotga ega bo'lishi va kasbiy faoliyat hamda hayotiy vaziyatlar bilan bog'langan bo'lishi zarur.

O'RTMI quyidagi vazifalarni bajaradi:

Maslahat vazifasi:

- har bir fan bo'yicha talabalarning mustaqil ishlariga yordam berish;
- talabaga dasturiy materialni o'zlashtirib olishi uchun ish usullarini tanlashga yordam berish;
- talaba uchun murakkab bo'lgan mavzuning bayonini qayta eshitish, o'quv materialini mustahkamlash uchun amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniyatini yaratish;
- o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga yordam berish;
- ilmiy sohada talabaning mustaqil ishiga yordam berish.

O'RTMI ning nazorat vazifasi oraliq va yakuniy nazorat mobaynida talabalarni o'qishga qiziqtirish maqsadida amalga oshiriladi. O'RTMI ni bajarish davomida talaba nazorat ishlarini bajarish uchun topshiriqlar oladi, tyutor bilan maslahatlashadi va baho oladi (joriy nazoratda).

Ta'lim jarayonini tashkil qilishning muhim masalalaridan biri talabalarning o'zlashtirishini doim monitoring qilishdir.

O'RTMI rejasi quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

- topshiriq mavzusi;
- maqsadi;
- o'tkazilish tartibi;
- topshiriq va savollar;
- uslubiy tavsiyalar, tarqatma materiallar;
- adabiyotlar.

8-bo'lim. Nazorat-o'lchov vositalari. Bularga mavzular bo'yicha nazorat savollari, testlar, o'rgatuvchi testlar, sinov va imtihon savollari, kirish savollari, kompleks imtihon savollari kiradi

Talabaning axborot paketi

Talabaning axborot paketi ma'rumotnoma-yo'riqnoma va talabaning o'quv-uslubiy majmuasini (O'UM) o'z ichiga olib, talabaning oliy o'quv yurtidagi barcha faoliyat turlariga tegishli hujjatlar jamlanmasini o'ziga qamrab oladi. Talabaning O'UM uning yangi akademik talablarga moslashuvchanligini, o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish maqsadida "teskari aloqa"ni jadallashtirish va oliy ta'lim muassasasi sharoitlarida ta'lim mazmuniga oid ilg'or tajribalarni joriy qilish maqsadida ishlab chiqiladi.

Talabaning O'UM kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va dekan tomonidan tasdiqlanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabaning shaxsiy o'quv rejasi (SHO'R);
- tanlov fanlari katalogi (TFK);
- ishchi o'quv dasturlari (Syllabus);
- TMI, jumladan O'RTMI bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;
- barcha turdagi nazoratlar uchun test topshiriqlari;
- amaliyot uchun materiallar.

Talabaning O'UM namunada ko'rsatilgan yagona shaklda to'ldirilishi zarur. Titul varag'ining orqa tomonida bibliografik bayon va hujjatning annotatsiyasi keltirilishi lozim. O'UM ning bibliografik bayoni hujjat nomi, tuzuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, chop etilgan shahar, nashriyot va yilini o'z ichiga olishi lozim. Annotatsiya hajmi 10 ta gapdan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Talabaning SHO'R har bir talabaning alohida ta'lim traektoriyasini belgilab beradi va shaxsan talaba tomonidan har o'quv yili uchun belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi. Bu rejalar RO ga topshiriladi, fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. SHO'R ning bitta nusxasi RO da saqlanadi va o'quv rejaning bajarilishini nazorat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ikkinchisi – talabaga taqdim etiladi.

O'quv jarayoni mobaynida talabaning O'UM etakchi tyutorlar tomonidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mobaynida faol tarqatma materiallar (FTM

- Handouts) bilan to'ldirib boriladi.

Unda shuningdek, oliy ta'lim muassasasi, uning joylashishi, talabalarning yashash tarzi, qayd qilish uchun zarur ma'muriy tadbirlar haqidagi umumiy axborotlar va akademik kalendar ham mavjud bo'ladi. Unga yana shuningdek, oliy o'quv yurtiga qabul qilish tartibi haqidagi ma'lumotlar, mashg'ulot turlari va nazorat shakllari, o'qitish usullari va texnologiyalari, fanlarning kredit hajmi va ularning tuzilmasi, fanlarni o'qitishni tashkil qiluvchi fakultetlar va bo'limlar nomlari ham kiritilgan. Ma'lumotnoma nashriga imtihonlarni o'tkazish sharoitlari va ularni baholash, oliy o'quv yurtini tugatgandan keyin beriladigan akademik darajalar ham kiritiladi.

Ma'lumotnoma-ko'rsatkich quyidagilardan tarkib topadi:

- Kirish.

Kirish tashkilotning asosiy nizomini, tuzilmasini, darajalarini, yo'nalish va mutaxassisliklarini va O'zbekiston Respublikasida, shuningdek, oliy o'quv yurtidagi mavjud malakalarini o'zida aks ettirishi o'zida aks ettirishi zarur.

- Oliy o‘quv yurti haqida umumiy ma’lumotlar
Bu bo‘limda oliy o‘quv yurtining missiyasi, uning qisqa tarixi, tashkiliy-huquqiy shakli, belgilovchi hujjatlarning huquqlari, davlat va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladigan davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.
- Akademik kalendar
Akademik kalendar dam olish kunlari (ta’tillar) ko‘rsatilgan o‘quv yili davomidagi o‘quv mashg‘ulotlari va nazorat tadbirlarini o‘tkazish jadvalidan iborat.
- Talaba kalendari
Talaba kalendari yil davomida oliy o‘quv yurti tomonidan tashkil etiladigan tashkiliy-ommaviy tadbirlarning jadvalidan iborat.
- Kredit ta’lim tizimini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Bu bo‘limda ta’lim jarayonini tashkil qilishning quyidagi asosiy holatlari va qoidalari aks ettirilishi kerak:
 - fanlarni o‘zlashtirishni nazorat qilish va baholash tizimi.
 - oliy o‘quv yurtining laboratoriya-kompyuter, sport-ko‘ngil ochish va axborot-texnik bazasidan foydalanish qoidalari (kutubxona, nusxa ko‘chirish xizmatlari, kompyuterlar, internet, WiFi).
 - talabaning harakatlari, huquqlari va majburiyatlari (etika va burch kodeksi).

Talabaning o‘zi xorijda o‘qish dasturini rejalashtirishi va tashkil qilishi uchun oliy o‘quv yurtiga ma’lumotnoma-ko‘rsatkichni davlat, rus va ingliz tillarida tayyorlash tavsiya qilinadi.

Kredit-modul tizimida o‘qiyotgan talabalar o‘quv kurslariga qayd qilinishida jahon amaliyotida qabul qilingan kodlash tizimiga diqqatini qaratishi zarur. Kodlar fan nomini bildiruvchi to‘rtta harf va o‘qish semestrini bildiruvchi bitta raqam hamda kurs ichidagi tartib raqamni bildiruvchi ikkita raqamdan tashkil topgan. Masalan, EEBE208 kodi “Elektrotexnika va elektronika asoslari” (Electric Engineering and Basics of Electronics) fani 2-kursdagi fanlar ichida 8-tartib raqami bilan belgilanganligini bildiradi.

Transkript

Transkript – bu bir yoki bir nechta oliy o‘quv yurtlarida orttirilgan akademik bilimlar darajasini aks ettiradigan rasmiy hujjat. Talabaning fanlarni o‘zlashtirishi mobaynida uning barcha baholari va to‘plagan kreditlari transkriptga kiritiladi. Registrator transkriptning yuritilishi va unga talabaning baholari kiritilishi uchun mas’ul hisoblanadi. U har semestr yakunida to‘ldirib boriladi.

Transkript quyidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlaydi:

- talaba haqidagi ma’lumotlar;
- o‘zlashtirilgan fanlar;
- kreditlar miqdori;
- harfli ifodalangan baholar (Grade);
- semestrda o‘rtacha baho (GPA).

Registrator ofisi faoliyati boshlanishi bilan bu ma’lumotlar kompyuterga kiritiladi, ya’ni har bir talaba uchun fayl ochiladi.

Transkript oliy o'quv yurtining firma blankasida rasmiylashtiriladi va muhr bilan tasdiqlanadi. U talabanning murojaatiga binoan quyidagi hollarda taqdim etiladi:

1. ish beruvchiga taqdim etish uchun;
2. boshqa oliy o'quv yurtiga o'qishini ko'chirish uchun;
3. magistraturaga o'qishga kirish uchun.

Transkript talabanning iltimosiga ko'ra ish beruvchiga yoki boshqa oliy o'quv yurtiga jo'natilishi mumkin. Transkript talaba ish beruvchining talablariga yoki boshqa oliy o'quv yurtida o'qishga qanchalik darajada mos kelishini ko'rsatadi. Talaba o'zi o'zlashtirgan fanlarning to'g'ri qayd qilinganligini tekshirish huquqiga ega.

Transkriptda talabanning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi, akademik darajasi, asosiy dasturi, qayd raqami, o'qishga kirgan va bitirgan yili, transkript to'ldirilgan sana ko'rsatilishi shart. Hujjatning oxirida huquqni belgilovchi hujjatlar (litsenziya, attestatsiya, akkreditatsiya) haqida ma'lumot beriladi.

Kredit-modul tizimida ta'lim jarayonlarini tashkil qilish oliy ta'lim muassasalaridagi barcha o'quv faoliyatlar turlari va bosqichlarining shaffofligini ta'minlaydi. Ta'limning tanlanuvchanligi, shaxsiy ta'lim traektoriyasini tanlash erkinligi, talabanning o'zlashtirishi va yutuqlarini muntazam nazorat qilish va hisobga olishning yo'lga qo'yilganligi uning o'qishga bo'lgan qiziqishini orttiradi, doimiy ravishda o'quv izlanishlari va tadqiqotlari bilan shug'ullanishiga, o'zini-o'zi takomillashtirib borishiga va mustaqil ravishda bilim olishiga undaydi.

SHunday qilib, ta'lim jarayonini tashkil qilishdagi an'anaviy va yangi yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish asosida tavsiya qilinayotgan kredit-modul tizimining quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- akademik erkinlik darajasi ortadi (fanlarni mustaqil ravishda tanlash, muddatlarni belgilash, o'qituvchilarni tanlash);
- talabalarning o'quv faoliyatida mustaqil ta'lim ulushining ortishi (kamida 50%);
- dars jadvallarini 5 kunlik tizimga o'tkazishning qulayligi (haftasiga 30 soat, kuniga 6 soatdan);
- o'qituvchilarning dars berish faoliyatida rivojlantiruvchi muhitning paydo bo'lishi (maslahat darslari, o'qituvchi rahbarligidagi talabanning mustaqil ishlari);
- nazariy ta'lim ulushining kamayishi va talabanning amaliy xarakterdagi o'lchanuvchan ko'nikmalarni orttirishi (turli interfaol ta'lim usullarini joriy qilish, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil ta'limda davom ettirish va ularni aniq faoliyat turlari orqali baholash mezonlari);
- talabalarning mustaqil izlanishga qaratilgan o'quv faoliyatlari (o'zi tanlagan shaxsiy ta'lim traektoriyasi bo'yicha o'qish);
- talabalarni hayotda mustaqil bo'lishga ko'niktirish, har semestrda turli akademik guruhlarda o'qishga imkon berish;
- ta'lim dasturlari mazmunining innovatsionligi (ilg'or ilmiy yutuqlarga yo'naltirilganligi);

- talabaning ta'lim muhitiga ta'sir ko'rsatishi (darsning tashkil qilinishiga, o'qitish usullariga taklif va tavsiyalar berishi);
- ta'lim dasturlarida oliy o'quv yurti komponentlari ulushining ortishi;
- interfaol, muammoli-rag'batlantiruvchi, innovatsion o'qitish usullari ulushining ortishi (talabaga yo'naltirilgan ta'lim muhiti);
- ilmiy izlanishlar asosida ta'lim berish uchun sharoitlarning yaratilishi;
- talabalarning o'quv ishlarini muntazam va bosqichli tarzda nazorat qilib borish;
- o'qitish metodlarida samarali va izlanuvchan usullar ulushining ortishi (ijodiy ishlar, taqdimotlar, portfolio usullarida baholashning joriy qilinishi orqali);
- ta'lim dasturlari mazmuni va muddatlarining diversifikatsiya qilinishi, talabaning ta'lim olishdagi imkoniyatlarining kengaytirilishi (tanlov asosida qo'shimcha fanlarni o'qish mumkinligi, kreditlarni oldindan olish imkoniyati, ekstern imtihonlarni topshirishi);
- talabalarni tabaqalab o'qitish (ilg'or, o'rta va sust talabalarni alohida guruhlarda o'qitish orqali ta'lim samarasini oshirish);
- aralash o'qitishning teskari sinf usulini qo'llash imoniyati (katta kontingentga umumiy ma'ruzalarni materiallarni oldindan tarqatish va darsni savol-javob tarzida o'tkazish, darsni talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish orqali);
- boshqa mamlakatlarda tan olinadigan malaka va akademik darajalarning olinishi (diplomlarning konvertatsiyasi).

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan kredit-modul tizimining samarasi, tajribalarining muvaffaqiyat qozonishi quyidagi omillarga bog'liq:

- o'quv jarayonining me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, moddiy-texnik va ilmiy-uslubiy ta'minoti;
- zamonaviy darsliklar va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;
- xalqaro axborot tarmoqlari mavjudligi, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi va o'quv faoliyatida yangi axborot texnologiyalarining qo'llanilishi;
- o'z ustida ishlovchi, o'z pedagogik mahoratini muntazam oshirib boruvchi, interfaol o'qitish usullarini egallagan, o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilarning mavjudligi;
- talabalarning shaxsiy va mustaqil ta'lim faoliyati uchun sharoitlar yaratilganligi.

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Ishlab chiqarish texnologiyalari fakulteti

“Kelishilgan”
Kaf. mudiri

“Tasdiqlayman”
Fakultet dekani

“ ___ ” _____ 2020 y.

MO
,

**TALABANING SHAXSIY O‘QUV REJASI
(CURRICULUM)**

**Yo‘nalish: 5321000 – Oziq ovqat texnologiyalari
(maxsulot turlari bo‘yicha)**

Talabanning F.I.O. _____

Bakalavriatda o‘qish davri: 2020-2024 yy.

Guliston 2020

| № | Fan kodi | Fan nomi | Kredit | Lektor, tyutor |
|----|----------|--|-----------|----------------|
| | | 1-semestr | 30 | |
| 1 | INCH112 | Umumiy va noorganik kimyo 1 | 6 | |
| 2 | MATH101 | Matematika 1 | 6 | |
| 3 | ITECH103 | Axborot texnologiyalari | 6 | |
| | | Gumanitar tanlov fanlari | 6 | |
| 4 | PHIL105 | Media falsafa | 6 | |
| 5 | SDEV106 | Barqaror rivojlanish | 6 | |
| 6 | INSP118 | Ixtisoslikka kirish (YUMB) | 6 | |
| | | 2-semestr | 30 | |
| 7 | INCH113 | Umumiy va noorganik kimyo 2 | 6 | |
| 8 | MATH102 | Matematika 2 | 6 | |
| 9 | PHYS104 | Fizika | 6 | |
| 10 | ENGR114 | Muhandislik grafikasi | 4 | |
| | | Xorijiy til bo'yicha tanlov fanlari | 3 | |
| 11 | ENGL107 | Ingliz tili | 3 | |
| 12 | GERL108 | Nemis tili | 3 | |
| | | Til bo'yicha tanlov fanlari | 3 | |
| 13 | ORAL109 | Nutq madaniyati | 3 | |
| 14 | RUSL110 | Rus tili | 3 | |
| 15 | UZBL111 | O'zbek tili | 3 | |
| | | Malakaviy amaliyotlar | 2 | |
| 16 | PRAC160 | Tanishuv amaliyoti (YUMB) | 2 | |
| | | 3-semestr | 30 | |
| 17 | MECH206 | Muhandislik mexanikasi | 6 | |
| 18 | ORCH201 | Organik kimyo 1 | 6 | |
| 19 | PHCH203 | Fizik kimyo 1 | 6 | |
| 20 | THPS207 | Ehtimollar nazariyasi va statistika | 6 | |
| 21 | SYNT315 | Monomerlarni sintez qilish usullari | 6 | |
| | | 4-semestr | 30 | |
| 22 | ORCH202 | Organik kimyo 2 | 6 | |
| 23 | PHCH204 | Fizik kimyo 2 | 3 | |
| 24 | CHAN205 | Kimyoviy tahlil | 6 | |
| 25 | PHCA206 | Fizik-kimyoviy tahlil | 6 | |
| 26 | EEBE208 | Elektrotexnika va elektronika asoslari | 6 | |
| 27 | PRAC260 | Ishlab chiqarish amaliyoti (YUMB) | 3 | |
| | | 5-semestr | 30 | |
| 28 | THED209 | Kimyoviy termodinamika | 3 | |
| 29 | GCHT302 | Umumiy kimyoviy texnologiya | 6 | |
| 30 | PROC210 | Texnologik jarayonlar va qurilmalar 1 | 6 | |
| 31 | PMOD305 | Texnologik jarayonlarni modellashtirish | 6 | |
| 32 | MTRL306 | Materialshunoslik | 3 | |
| 33 | | Qo'shimcha fanlar | 6 | |
| | | 6-semestr | 30 | |
| 34 | PROC303 | Texnologik jarayonlar va qurilmalar 2 | 6 | |
| | | Tanlov fanlari | 6 | |
| 35 | ECON401 | Muhandislik iqtisodiyoti | 6 | |

| | | | | |
|----|---------|--|------------|--|
| 36 | BCFM402 | Korxonalar hisobi asoslari va moliyaviy menejment | 6 | |
| 37 | CORP403 | Korporativ boshqaruv asoslari | 6 | |
| 38 | MARK404 | Marketing | 6 | |
| 39 | TENT405 | Tadbirkorlik texnologiyasi | 6 | |
| 40 | MNHM317 | YUMB ishlab chiqarish texnologiyasi | 7 | |
| 41 | PRAC360 | Ishlab chiqarish amaliyoti (YUMB) | 3 | |
| | | 7-semestr | 30 | |
| 42 | PROC304 | Texnologik jarayonlar va qurilmalar 3 | 6 | |
| 43 | DSGN406 | Kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash | 6 | |
| 44 | EQUP415 | YUMB ishlab chiqarish jihozlari | 6 | |
| 45 | POLE416 | Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi | 6 | |
| 46 | COMP417 | Polimer-kompozitsion materiallar yaratish asoslari | 6 | |
| | | 8-semestr | 30 | |
| 47 | PRAC450 | Bitiruv oldi amaliyoti | 15 | |
| 48 | GRAD475 | Bitiruv ishini tayyorlash | 15 | |
| | | Jami | 240 | |

Talaba _____

Registrator _____

Mavzuga oid savollar:

1. Talabalarning o'qishini ko'chirish, chetlashtirish va o'qishga tiklash mexanizmi
2. Tanlov fanlari katalogi
3. Fanning o'quv-uslubiy majmuasi
4. Talabaning axborot paketi
5. Transkript nima

Mavzuga oid mustaqil ish topshirig'i

Dunyo mamlakatlarining oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tuzilmasi

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati; qisqacha tarixi, rivojlanish istiqbollari, muammolari, Darslik, prof. Turabjonov S.M. taxriri ostida, T. Fan va texnologiya, 2014y. 460 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son
3. B.SH. Usmanov, R.A. Xabibullaev. Oliy o'quv yurtlarda o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T. 2020. 120. bet